

GEOGRAFIYA FANINING VUJUDGA KELISHI TARIXI

Jumaboyeva Barchinoy Baxtiyorovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

Fan nomi geografiya tarixi va nazaryasi

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi geografiya fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida soʻz yuritiladi. Unda qadimgi davrlardan boshlab insoniyatning atrof-muhitni oʻrganishga boʻlgan ehtiyoji, geografik bilimlarning dastlabki manbalari hamda buyuk allomalarning bu sohadagi hissasi yoritiladi. Shuningdek, geografiya fanining ilmiy yoʻnalish sifatida ajralib chiqishi, turli davr va sivilizatsiyalardagi geografik tasavvurlar, zamonaviy geografiyaning shakllanish jarayoni ham tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: geografiya, tarix, qadimgi dunyo, ilmiy tafakkur, tabiiy geografiya, ijtimoiy geografiya, ilmiy maktablar, rivojlanish bosqichlari, allomalar, zamonaviy geografiya.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ГЕОГРАФИИ

Аннотация. В данной диссертации рассматриваются становление и этапы развития географии. Подчеркивается необходимость изучения окружающей среды человечеством с древнейших времён, первоисточники географических знаний и вклад великих учёных в эту область. Анализируется возникновение географии как научного направления, географические концепции в разные эпохи и цивилизациях, а также процесс формирования современной географии.

Ключевые слова: география, история, древний мир, научная мысль, естественная география, общественная география, научные школы, этапы развития, учёные, современная география.

Kirish. Hozirgi davrda fan jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan muhim ijtimoiy institutga aylangan. Bugungi kunda 15 mingdan ortiq fan tarmoqlari mavjud bo'lib, ular yagona ilmiy tizimni tashkil etadi. Har bir fan o'ziga xos tadqiqot obyekti va metodlariga ega bo'lsa-da, fanlar o'rtasida uzviy bog'liqlik

tobora kuchayib bormoqda. Shu bois, zamonaviy fanda aniq chegaralar mavjud emas, ular nisbiy hisoblanadi.

Geografiya fani uzoq vaqt davomida Yerni o'rganadigan yagona tabiiy fan sifatida qaralgan. Ammo XX asrga kelib, geografiya mustaqil fanlar tizimiga aylandi va u tabiiy hamda ijtimoiy yo'nalishlarga bo'lindi. Bugungi kunda geografiya – tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganadigan murakkab ilmiy kompleksdir.[1]

Geografik fanlarning yagona tizimini tabiiy geografiya va ijtimoiy geografiya tarmoqlari tashkil etadi. Ularning umumiyliги tadqiqot obyektida – geografik qobiqda namoyon bo'ladi. Turli olimlar geografiyani tasniflash bilan shug'ullanganlar, jumladan, B.Varenus, I.Kant, G.Gerland, A.Hettner, L.Berg, V.Semyonov-Tyan-Shanskiy va boshqalar.

Varenus geografiyani “umumiy” va “juz'iy” turlarga ajratgan bo'lsa, I.Kant uni tabiiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy yo'nalishlarga bo'lgan. F.Engels geografiyani tabiatda kechadigan jarayonlarni o'rganuvchi fan sifatida baholagan va uni kimyo hamda biologiya o'rtasidagi o'ringa joylashtirgan.

A.N.Krasnov va P.P.Semyonov-Tyan-Shanskiy geografiyaning tuzilishi va mazmunini chuqur o'rganganlar. Ularning fikricha, geografiya o'z tabiati bilan sintezlovchi, ya'ni turli fanlarni birlashtiruvchi kompleks fan hisoblanadi. Shu sababli geografiya nafaqat tabiat, balki inson faoliyatining barcha jihatlarini ham o'zaro bog'liq holda o'rganadi.[2]

Muhokama va natijalar. Geografiya insoniyat tarixidagi eng qadimiy va doimo yangilanib boruvchi fanlardan biridir. Uning rivojlanish jarayoni turli tarixiy bosqichlar orqali kechgan.

Qadimgi davr (antik bosqich) — insonlar o'z yashash joylarini o'rganish, qulay hududlarni topish va tabiiy boyliklardan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj tufayli dastlabki geografik bilimlar shakllangan davrdir. Eramizdan avvalgi II ming yillikda finikiyaliklar O'rta dengizdan Gibraltar bo'g'ozini orqali suzib o'tib, Afrika qirg'oqlari bo'ylab Hindistongacha yetib borishgan. Shu davrda Osiyo va Yevropa atamallari

paydo bo'lgan. Yunon va Rim olimlari ma'lum hududlarni xaritalashni boshlaganlar. Gomer O'rta dengiz atrofidagi joylarni tasvirlagan, Pifagor va uning shogirdlari Yerning sharsimonligini ta'kidlaganlar. Aristotel Yer shaklini mantiqan isbotlab, iqlim mintaqalari haqida fikr yuritgan. Eratosfen Yer o'lchamini aniqlab, "Geografiya" asarini yozgan va fanni mustaqil yo'nalish sifatida shakllantirgan. Ptolemey "Geografiya" nomli sakkiz jildlik asarida kartografik proyeksiyalarni yaratgan, Strabon esa 17 jildlik geografik asar yozgan. Shu davrda Yerning shakli, o'lchami, geografik koordinatalar va xaritalar aniqroq belgilandi.[3]

O'rta asrlar bosqichi — asosan Sharq mamlakatlarida, xususan O'rta Osiyo, Misr va Eronda geografik bilimlarning rivoj topgan davridir. Al-Xorazmiy Yerning sharsimonligini isbotlab, "Surat al-Arz" kitobini yozgan. Beruniy geografiya, geodeziya, kartografiya, iqlimshunoslik va mineralogiyaga oid o'nlab asarlar yaratgan va globus yasagan. U birinchilardan bo'lib, olamning quyosh markazida joylashganini ilgari surgan. Ahmad Farg'oniy "Nilometr" asbobini yaratib, daryolar suvini o'lchash usulini ishlab chiqqan. Yoqut Hamaviy geografik lug'at tuzgan, Bobur esa "Boburnoma" asari orqali geografik ma'lumotlarni boyitgan. Shu bilan birga, Marko Polo, Erik Rauda va A. Nikitin kabi yevropalik sayohatchilar ham yangi hududlarni o'rganib, geografiya rivojiga hissa qo'shganlar. Bu davrda kartografiya, iqlimshunoslik, gidrologiya va mamlakatshunoslik fanlari shakllandi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri (XV–XVI asrlar) — Yevropada yangi dengiz yo'llarini topish istagi tufayli keng ko'lamli ekspeditsiyalar boshlandi. 1492-yilda Xristofor Kolumb Amerikani kashf etdi, biroq uni Hindiston deb o'ylagan. Amerigo Vespuchchi esa bu yangi yerlar aslida boshqa materik ekanini aniqladi, shundan so'ng u "Amerika" deb nomlandi. Vasko da Gama Afrikani aylanib o'tib, Hindistonga dengiz yo'lini ochgan, Fernan Magellan esa Yer atrofini aylanib chiqib, Yerning sharsimonligini amalda isbotlagan. Keyinchalik rus, ingliz va golland sayyohlari Sibir, Avstraliya va Okeaniya hududlarini o'rganishdi.[4]

Bu davrda Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya kashf qilindi; Dunyo okeanining uzluksizligi, Yerning katta qismi suv bilan qoplanganligi isbotlandi. G.

Merkator, B. Varenius va S. Myunsterlarning asarlari zamonaviy ilmiy geografiyaning shakllanishiga asos bo'ldi.

XVII asrga kelib fanlarning rivojlanish sur'ati keskin oshdi. Geografiyada maxsus ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etila boshlandi. Ularning orasida eng muhimlari — 1725–1741-yillarda V. Bering va A. Chirikov boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi, 1768–1779-yillarda J. Kuk rahbarligidagi ingliz ekspeditsiyalari va 1785–1788-yillarda J. Laperuz boshchiligidagi fransuz ekspeditsiyasidir. Ushbu sayohatlar davomida Kuril orollari, Kamchatka, Chukotka, Osiyoning shimoliy qirg'oqlari, Afrika va Janubiy Amerikaning ichki hududlari, Avstraliyaning sharqiy qismi hamda Tinch okeanidagi ko'plab orollar o'rganildi.[5]

Yerning tuzilishi va tektonik jarayonlar haqidagi bilimlarning ortishi natijasida tabiiy geografiyadan geologiya fani ajralib chiqdi. Relyef, suvlar, iqlim, o'simliklar haqidagi ma'lumotlarning ko'payishi geomorfologiya, gidrologiya, meteorologiya va geobotanika fanlarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Bu davrda geografik tadqiqotlar, asosan, o'rganilgan hududlarning tavsifini yaratishga bag'ishlangan bo'lib, yangi xaritalar va ilmiy asarlar paydo bo'ldi. Kant-Laplasning kosmogonik nazariyasi, Pallasning geologik qatlamlar yoshi haqidagi g'oyalari, Leybnitsning vulqonlar haqidagi gipotezasi, Lomonosovning “Yer qatlamlari haqida” asari va Kantning “Tabiiy geografiyadan ma'ruzalar”i shu davrning muhim ilmiy ishlari bo'ldi. Natijada geografiyada yangi nazariyalar yaratildi, Yer yuzini tasvirlash va xaritalashning zamonaviy usullari ishlab chiqildi, mustaqil fanlar shakllandi.[6]

XIX asr va XX asrning birinchi yarmi. Bu davrda geografiya yanada tizimli va tashkilotli tarzda rivojlandi. Turli davlatlarda geografik jamiyatlar tuzildi: Fransiyada (1821), Germaniyada (1828), Buyuk Britaniyada (1830), Rossiyada (1845) va Turkistonda (1897). Yirik ilmiy ekspeditsiyalar o'tkazilib, yangi kashfiyotlar qilindi. 1821-yilda Bellinsgauzen va Lazarev Antarktida materigini kashf etdilar. Kotsebu Dunyo okeanini tadqiq etib, marjon orollarining paydo bo'lish sabablarini o'rgandi, Lens esa birinchi marta batometr yordamida dengiz chuqurligini o'lchadi. D. Livingston Afrikani o'rgandi, Semyonov-Tyan-Shanskiy O'rta Osiyoda izlanishlar

olib bordi, Piri 1909-yilda Shimoliy qutbga, Amundsen esa 1911-yilda Janubiy qutbga yetib bordi.

A. Humboldt Yevropa, Amerika va Osiyoda tadqiqotlar olib borib, o'simliklarning kenglik va balandlik bo'yicha tarqalish qonuniyatini aniqladi. U "Tabiat manzarasi" va "Kosmos" kabi asarlarida tabiatni yagona, uzluksiz va qonuniyatli tizim sifatida tushuntirib berdi. Shu tariqa u zamonaviy geografiyaning ilmiy asoslarini yaratdi. Shuningdek, Ch. Layel yer po'stining rivojlanish nazariyasini ishlab chiqdi, Dokuchayev tabiat zonalligi ta'limotini, Grigorev geografik qobiq haqidagi g'oyani, Vernadskiy esa biosfera haqidagi ta'limotni ilgari surdi.[7]

Ushbu davr natijasida geografiya fan sifatida mustaqil shakllandi, qutblar zabt etildi, okeanografiya rivojlandi, meteorologik va gidrologik stansiyalar tashkil etildi, Yer po'stining tuzilishi va tabiiy jarayonlar to'g'risida chuqur ilmiy bilimlar to'plandi.

Hozirgi zamon geografiyasi (XX asrning ikkinchi yarmi – hozirgi davr). Fan va texnika inqilobi geografiya rivojiga kuchli turtki berdi. Bugungi kunda geografik tadqiqotlarda modellashtirish, tajriba usullari, geografik axborot tizimlari (GAT), kompyuter texnologiyalari va kosmik kuzatuv usullari keng qo'llanmoqda. Sun'iy yo'ldoshlar yordamida atmosferadagi harakatlar, okean suvlarining aylanish jarayonlari, suv osti oqimlari va aylanasi tuzilmalar o'rganilmoqda.[8]

Insonning tabiatga ta'siri kuchaygani sababli geografik tadqiqotlar endi faqat mahalliy muammolarni emas, balki global ekologik masalalarni ham qamrab olmoqda. Fanlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib, yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Masalan, landshaftshunoslikdan amaliy va antropogen landshaftshunoslik tarmoqlari ajralib chiqdi. Shuningdek, geografiya bilan boshqa fanlar tutashgan sohalarda yangi yo'nalishlar shakllandi: geografiya va tibbiyot orasida — tibbiyot geografiyasi, geografiya va tarix yoki filologiya orasida — toponimika (joy nomlari haqidagi fan) kabi tarmoqlar paydo bo'ldi.

Umuman olganda, XVII asrdan to hozirgi kungacha geografiya fan sifatida uzluksiz rivojlanib kelmoqda. U endi faqat Yer yuzini tasvirlash bilan cheklanmay, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur tahlil etadigan, global miqyosdagi

muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadigan kompleks ilmiy tizimga aylangan.[9]

Xulosa. Geografiya fani insoniyat tafakkuri bilan birga shakllanib, uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Qadimgi davrlarda insonning yashash joyi, tabiiy sharoitlar va yo'nalishlarni bilishga bo'lgan ehtiyoji dastlabki geografik bilimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Antik davr olimlari – Eratosfen, Strabon, Ptolemey kabi allomalar geografiyani ilmiy fan sifatida shakllantirdilar. O'rta asrlarda esa Xorazmiy, Beruniy, Farg'oniy va Ulug'bek singari Sharq mutafakkirlari bu fanga katta hissa qo'shdilar.

XV–XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar insoniyatning dunyo haqidagi tasavvurini kengaytirib, yangi materik va okeanlarning ochilishiga sabab bo'ldi. Keyingi asrlarda ilmiy ekspeditsiyalar, xaritalar va nazariyalar geografiyani mustaqil ilmiy tizim sifatida rivojlantirdi. XIX–XX asrlarda geografik jamiyatlar tashkil etilishi, biosfera, tabiat zonalligi, geografik qobiq haqidagi ta'limotlarning yaratilishi fanning ilmiy asoslarini yanada mustahkamladi.

Hozirgi davrda geografiya fan-texnika taraqqiyoti, axborot texnologiyalari va kosmik tadqiqotlar yordamida yangi bosqichga ko'tarildi. U nafaqat Yer yuzini o'rganadi, balki inson faoliyatining tabiatga ta'sirini tahlil qiladi va global ekologik muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, geografiya fani insoniyatning tabiiy muhitni anglash, undan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lidagi eng qadimiy va dolzarb ilmiy sohalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, A. va boshq. **“Umumiy geografiya”**. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2019.
2. Xaitov, N., Tursunov, B. **“Geografiya fanining rivojlanish tarixi”**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Beruniy, A. R. **“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”**. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.

4. Humboldt, A. **“Kosmos”**. – Moskva: Nauka, 1984.
5. Ptolemey, K. **“Geografiya”**. – Moskva: Mysl’, 1990.
6. Qodirov, A., Egamberdiyev, S. **“Tabiiy geografiya asoslari”**. – Toshkent: Universitet, 2020.
7. www.geoportal.uz
8. www.uzedu.uz
9. www.nature.com